

## YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI KONSTITUTSIYASI – MAMLAKAT HUQUQIY ASOSI

**Yernazarova Gulnaz Puxarbayevna**

TAQU assistenti

**Tuyg‘unova Navbahor Noryigit qizi**

TAQU talabasi

### *ANNOTATSIYA*

*Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda joriy yilda qabul qilingan yangilangan Konstitutsiyasining ayrim masalalariga oid muhokamalar olib boriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, qonun, huquq, metod, himoya.*

### **KIRISH**

2023 yil O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi referendum orqali xalqimizning ehtiyojlaridan kelib chiqib qabul qilindi, unga ko‘ra moddalar 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi. Konstitutsiyada O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va **Ijtimoiy davlat** ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Tariximizda ilk bora O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Ya’ni, insonga e’tibor hamda g‘amxo‘rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy sifatida mustahkamlanib bormoqda. Bu boradagi normalar Konstitutsiyada 3 barobar ko‘paytirildi.

### **ASOSIY QISM**

2023 yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb, e’lon qilinishining zamirida ham bugungi va ertangi porloq hayotni ko‘zlab qilinayotgan sa’y-harakatlardan biri bo‘lib, jamiyat oldiga yanada faollik, tashabbuskorlik kabi talablarni qo‘ymoqda. Shu

maqsadda 2021-2030 yilgi rivojlanishning yangi harakat strategiyasi va dasturiy vazifalari belgilanib, fuqarolik jamiyatini shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini yanada tezlashtirmoqda. Fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini muhofaza etish, ularni qo‘llab-quvvatlash har qachongidan ham hozirgi kunda yanada faollashganligi kuzatilmoqda. Shuningdek, hozirgi paytda yoshlarning huquq va manfaatlari davlatning asosiy e‘tiborida bo‘lib, ularning ta‘lim olishi, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinliklarining belgilanishi, umumiy o‘rta ta‘lim uzluksizligini ta‘minlash, imkoniyati cheklangan yoshlarning inklyuziv ta‘lim asosidagi o‘qishi, jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida ishtirokini ta‘minlaydi. Ta‘lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirildi, eng quvonarlisi, o‘qituvchilar huquqi konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida yoshlarga oida 5 ta eng muhim yangiliklar kiritilganligi ham ta‘kidlash o‘rinlidir. Jumladan,

1. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyalinishini ta‘minlaydi.

2. Davlat yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

3. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

4. Davlat yoshlarning ta‘lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchunshart-sharoitlar yaratadi.

5. Davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Bu bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiya yanada o‘zining afzallik tomonlarini namoyon etadi va huquqiy kafolatlaydi Inobatga olinayotgan eng asosiy maqsad ham aholini farovonligini ta‘minlash, huquq va manfaatlarini, erkinliklarini ruyobini

amalda kuchaytirish bilan hamohangdir. Yuqoridagi 4 bandda ta'kidlaganimizdek, yoshlarni ish bilan ta'minlash, bandlik masalasini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda. Ayniqsa, hozirgi tahlikali davrda, ishsizlar va ortiqcha ishchi kuchlarini, birinchi navbatda, texnikum, litsey, kollej va oliygohlarni tamomlab, bo'sh yurgan talabalarning hayoti va tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri sifatida barchaning diqqat e'tiborida bo'lmog'i lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Aholini ish bilan ta'minlash, biz uchun nafaqat iqtisodiy, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Hokimliklar, vazirlik va idoralar, ish beruvchi tashkilotlar bilan bir qatorda bank mussasalari ham bu ishga yanada faol jalb etilishi kerak".

Jamiyatning ijtimoiy yoki ijtimoiy-siyosiy tizimi o'ziga xos tashkiliy, institutsional xususiyatlarga va boshqa tizimlar bilan aloqalarga ega. Shuning uchun u keng ijtimoiy hayot va munosabatlar majmuida mavjuddir. Jamiyatdagi mafkura, axloqiy va huquqiy me'yorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy-madaniy tajriba ijtimoiy-siyosiy tizimga ustqurma sifatida ta'sir etadi. Biroq, jamiyatning bu ijtimoiy unsurlari tizimi bilan ijtimoiy-siyosiy tizimlar o'rtasida mudom farq saqlanib qoladi. Demak, ijtimoiy-siyosiy tizim ustqurma ta'sirida bo'lsa-da, aynan uning o'zi emas, balki o'zining institutsional, funksional, regulyativ va aksiologik jihatlari bilan boshqa ijtimoiy tizimlardan farq qiladi. Ushbu farq ijtimoiy-siyosiy tizimning ichki tartibi, tashkiliy jihati, hech bo'lmaganda, minimal darajadagi siyosiylikida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-siyosiy tizim avvalo tashkilot yoki institutsionallashtirilgan birlikdir. Ushbu tashkilotga muayyan bir tartibda tashkil etilganlik va faoliyat ko'rsatish, rasmiy-yuridik tashkil qilinganiga dalil bo'luvchi Nizom va boshqa ta'sis hujjatlariga, o'ziga xos maqsad va vazifalariga ega bo'lish, ijtimoiy hayotda qabul qilingan ma'lum tamoyillarga muvofiq faoliyat ko'rsatish, ichki va tashqi faoliyatni boshqarish organlarining tuzilgani, mavjudligi xosdir. Ammo ijtimoiy-siyosiy tizimning barcha qismlari ham bir xil mavqe, huquq va funksiyalarga ega emas. Ijtimoiy-siyosiy tizimning qismlari — tuzilmaviy bo'g'inlari siyosiy, ijtimoiy va kam darajada

siyosiy lashgan institutlarga bo‘linadi. Siyosiy institutlarga — davlat, siyosiy partiyalar va siyosiy harakatlar; ijtimoiy institutlarga — kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoqi, tadbirkor xotin-qizlar assotsiatsiyasi, jamg‘armalar, ijodiy uyushmalar; kam siyosiy lashgan ijtimoiy-siyosiy institutlarga — fuqarolarning u yoki bu madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ixtiyoriy uyushmalari, to‘garaklari, birlashmalari kiradi.

Xullas, ijtimoiy-siyosiy tizimga institutsional yondashuv, birinchidan, ushbu tizimning ichki tashkiliy va funksional xususiyatlarini to‘laroq ochib berish, ikkinchidan, uning tashqi muhit, jamiyat va boshqa tizimlar bilan barcha turdagi aloqalarini keng qamrab olish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy-siyosiy tizim o‘zining tashqi va ichki xususiyatlariga ega ijtimoiy institutdir. Uni ma’lum ma’noda maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish mexanizmi deyish mumkin. Shu bois, ijtimoiy institutda o‘rnatilgan xulq-atvor, tartib-qoida va me‘yorlarni qo‘llab-quvvatlash, individlarning hatti-harakatlarini ularga muvofiq boshqarish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonda demokratik islohotlar muqarrar tus oldi va hech kim, hech qanday kuch bizni o‘z tanlagan yo‘limizdan qaytara olmaydi. Bu – bugungi hayot, bugungi zamon talabi. Bu – ko‘p millatli, bag‘rikeng, mehnatkash va olijanob xalqimizning xohish-istagi. Va biz xalqimizning tub manfaatlari, uning ezguorzu-intilishlarini ifoda etadigan ana shunday siyosatni jadal davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki uni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘taramiz. El-yurtimiz, jahon hamjamiyati bizga katta ishonch bilan qaramoqda. Ana shu yuksak ishonchga har tomonlama munosib bo‘lib, qat’iyat bilan olg‘a intilib, ko‘zlagan ulug‘ maqsadlarimizga birgalikda albatta yetamiz”

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga sharhlar. Toshkent., 2023y – 5
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. Toshkent., 2022y – 48
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent., 2022y – 112
4. O‘zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. Toshkent., 2022y-25
5. LEX.UZ, glotr.uz, norma.uz, google schjlar.com